


Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



ULUG'BEK MIRZONING CHIG'ATOY XONLARIGA MUNOSABATI

Xurshid Fayziyev
Tarix fanlari nomzodi,
Temuriylar tarixi davlat muzeyi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada XV asrning birinchi yarmida Temuriylar bilan chig'atoy xonlari o'rtasidagi siyosiy-harbiy munosabatlar, xususan, Shohruh Mirzo va Ulug'bek Mirzoning chig'atoy ulusi hukmdorlari Muhammadxon, Sher Muhammad, Naqshi Jahon, Vaysxon bilan olib borgan harbiy, siyosiy va diplomatik aloqalari kabi masalalar o'rganilgan.

ULUGBEK MIRZA'S ATTITUDE TOWARDS THE CHIGATAI KHANS

Khurshid Fayziev
Candidate of Historical Sciences,
State Museum of the History of the Timurids
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Abstract: In this article the political and military relations between the Timurids and the Chagatai rulers, in particular, the military, political and diplomatic relations of Shahruh Mirzo and Ulugbek Mirzo with the Chagatai rulers Muhammadkhan, Sher Muhammad, Naqshi Jahon, Vaiskhan in the first half of the 15th century, and also issues such as the impact of the Timurids on the political life of Mogholistan have been studied.

ОТНОШЕНИЕ УЛУГБЕКА МИРЗЫ К ЧИГАТАЙСКИМ ХАНАМ

Хуршид Файзиев
Кандидат исторических наук,
Государственный музей истории Темуридов
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Аннотация: В данной статье представлены сведения о военно-политические отношения между Темуридами и моголскими ханами в первой половине XV века. В частности были изучены такие вопросы, как военно-политические и дипломатические отношения Шахруха Мирзо и Мирзо Улугбека с правителями чагатайского улуса Мухаммадханом, Накши Джаханом, Шир Мухаммадом и Вайсханом.

KIRISH

Ulug'bek Mirzo Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, 1394-yil 22-mart yakshanba kuni Sultoniyada tug'ilgan. Onasi Gavharshod begim. Ulug'bek Mirzo yoshligidanoq Amir Temur saroyida tarbiyalanadi va uning ba'zi harbiy yurishlarida hamrohlik qiladi. Amir Temurning vafotidan so'ng otasi Shohrux Mirzo yonida bo'lib, avvaliga Astrobod noyibi, keyinchalik Movarounnahr hukmdori sifatida faoliyat yuritdi. Uning Movarounnahrdagi siyosiy faoliyatining birinchi yarmi Mo'g'ulistonda hukmronlik qilayotgan chig'atoy xonlari bilan chegaradosh hududlar havsizligi yo'nalishida siyosiy-harbiy munosabatlarga kirishishni taqazo etgan. Zero, Temuriylar saltanati tashkil topgan davrning ilk bosqichlaridayoq davlat siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan mintaqqa - bu saltanat shimoli-sharqida joylashgan qo'shni hududlar edi. Chingiziy hukmdorlarning tayanch hududlaridan biri bo'lgan va o'sha davr manbalarida Mo'g'uliston deb yuritilgan mazkur mintaqqa ko'plab turk-mo'g'ul qabilalariga makon, ayni paytda, yirik harbiy kuchlar markazi bo'lishi barobarida, o'zining geografik jihatdan muhim mavzeda joylashganligi bilan Temuriylar saltanati uchun alohida ahamiyat kasb etar edi.

Darvoqe, Xitoy bilan olib borilgan savdo-elchilik munosabatlarini yo'lga qo'yish va rivojlantirishga alohida e'tibor bergan Amir Temur va Temuriylar uchun mazkur mintaqada o'z ta'sirini oshirish talab qilinardi.

Mazkur aloqalarning rivojlanishida esa karvon yo'llarining tinch bo'lishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Temuriylar saltanati bilan Xitoy davlati o'rtasida joylashgan Mo'g'uliston mintaqasidagi mavjud murakkab siyosiy vaziyat ko'p hollarda mazkur aloqalarning rivojlanishiga monelik qilardi. Shu bilan birga mo'g'ullarning Farg'ona hududiga amalga oshirgan talonchilik bosqinlarini bartaraf etish ham Temuriylar uchun alohida ahamiyat kasb etganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Amir Temur vafotidan so'ng 1409-yilga kelib Temuriylar o'rtasidagi o'zaro nizolarga bir qadar barham bergan Shohrux Mirzo tashqi siyosatda saltanat mavqeini tiklashga harakat qila boshladi.

Shohrux Mirzo Hirotni saltanat poytaxti deb e'lon qilib, o'zi "ulug' xoqon" sifatida saltanatni boshqara boshlagach, Mo'g'uliston va Dashti Qipchoq bilan olib borilgan siyosiy munosabatlarni Ulug'bek Mirzo orqali amalga oshirdi. Zero, bundan keyingi Movarounnahr – Mo'g'uliston munosabatlari Ulug'bekning tutgan siyosatiga bog'liq edi. Zero, ayrim hollarda tashqi siyosat masalasida Ulug'bek Mirzo o'z xohshicha ish tutar, bu esa davlatlar o'rtasidagi siyosiy vaziyatning keskinlashib ketishiga sabab bo'lardi.

Shohrux Mirzo Mo'g'ulistonda saltanat mavqeini mustahkamlash harakatiga tushgan bir pallada mazkur hududda *dug'lat*¹ qavmi vakillari va chig'atoy xonlari orasida hokimiyat uchun

¹ **Duglot** - manbalarda dug'lat, dug'ulat shakllarida qayd etilib, ko'plab turk-mo'g'ul urug'larini

kurash kuchaygan edi.

Takidlash kerakki, Temuriylarning Mo'g'uliston hukmdorlari bilan munosabatlarida Shayx Nuriddin faoliyati ham alohida o'rin tutadi. 1410-yilning bahorida amir Shayx Nuriddin Jahongir Mirzoga belgilangan otabek (otaliq) bilan ittifoq tuzib, Ulug'bek Mirzo va amir Shohmalikka qarshi harbiy harakat boshlaydi. Bir necha to'qnashuvlardan keyin, Samarqandni istisno qilganda, Amudaryogacha bo'lgan yerlar Shayx Nuriddin qo'lga o'tadi. Ulug'bek Mirzo esa Kalifga chekinishga majbur bo'ladi². Movarounnahrda keyingi voqealar Shohrux Mirzoni Hirotdan qo'shin bilan chiqib, Kalifga kelishga majbur etadi. Xuroson qo'shinining Movarounnahrqa yaqinlashishi Shayx Nuriddinni Samarqand qamalini bo'shatib, ortga chekinishga majbur etdi. 1410-yilning 12-iyulida Shohrux Mirzo bilan Shayx Nuriddin o'rtasida Qizil Rabotda bo'lib o'tgan jang so'nggisining mag'lubiyati bilan tugaydi. Omadsizlikka uchragan Shayx Nuriddin Mo'g'uliston hukmdori Muhammadxon huzuriga harbiy ko'mak so'rab boradi. Movarounnahrda sodir bo'layotgan voqealarni diqqat bilan kuzatib turgan Muhammadxon tajribali sarkarda amir Shayx Nuriddinni yaxshi kutib oladi va unga harbiy madad beradi.

Mo'g'ul hukmdori amir Shayx Nuriddin bilan birgalikda Movarounnahr hududiga qo'shin tortadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, Muhammadxonning niyati Movarounnahrni Mo'g'uliston hukmronligiga bo'ysundirish bo'lmay, faqatgina qulay vaziyatdan foydalanib, shahar va qishloqlarni talashdan iborat edi. Muhammadxon va Shayx Nuriddin Sayramga keladilar. 1411 yilning yanvarida Ulug'bek Mirzoning otalig'i amir Shohmalik ittifoqchilar qo'shiniga qarshi harbiy harakat boshlaydi. 15 minglik qo'shin Muhammadxonning ukasi Shoh Jahon boshchiligida Sayramni qamal qilib, O'tror atrofida joylashgan Qora Somongacha boradi. Bu xabarni eshitgan Shohmalik ikki minglik qo'shinni yovning orqa tomoniga hamla qilish uchun yuboradi. Temuriylar qo'shini Piskentdan Talasga yetib borgach, u yerda turgan mo'g'ullar ustiga hujum qilib, ularni mag'lubiyatga uchratadi. Mag'lubiyat mo'g'ullarning Sayramni qamaldan bo'shatib ortga chekinishga majbur qilgan bo'lsa-da, ular Movarounnahrning shimoliy chegaralaridan uzoqlashmaydilar. Mo'g'ullar Muhammadxon boshchiligida ikkinchi marotaba Movarounnahrqa bosqin uyushtirdilar. Ulug'bek Mirzo tezda bu voqeadan Shohrux Mirzoni xabardor etadi. Abdurazzoq Samarqandiyning bergan ma'lumotiga ko'ra, Shohrux Mirzo 1411 yilning 22 iyul kuni Hirotdan qo'shin bilan yo'lga chiqib, Bog'i Muxtorga keladi. Faqat Shohrux Mirzo Murg'ob daryosiga yetganda Ulug'bek Mirzodan chopar kelib, mo'g'ullar o'z viloyatlariga qaytib ketganliklari xabarini yetkazadi.

Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, mo'g'ullar Shayx Nuriddinni deb Shohrux Mirzo bilan kelishmovchilik chiqishini xohlamaganlar. Muhammadxon Hofiz ismli choparni amir Shohmalik huzuriga yuborib sulh taklif qiladi. O'z navbatida, amir Shohmalik ham elchini yaxshi kutib oladi va Muhammadxon huzuriga Navro'z Baxshini elchi qilib jo'natdi. Elchilik almashinuvi natijasida ikki taraf o'rtasida sulh tuziladi³. Amir Shayx Nuriddin esa yakka o'zi markaziy hokimiyatga qarshi kurashni davom ettiradi. Biroq, Shayx Nuriddin amir Shohmalik

birlashtirgan qabila bo'lib, Chingiziylar davrida Yettisuv va unga qo'shni hududlarda, xususan, tarixiy Mo'g'ulistonda katta nufuzga ega edi. Keyinchalik ular bir qator turkiy xalqlarning etnik shakllanishida faolishtirok etib, ular tarkibiga singib ketadilar. Xususan, qozoqlarning Sirdaryoning o'rta havzalaridan Balxash ko'ligacha cho'zilgan kenglikda istiqomat qilgan qabilalarining asosiy qismi **dulat** (dug'lat) deb atalib, to so'nggi o'rta asrlarga cha o'z nufuzlarini saqlab qolishgan.

² Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. - B. 111.

³ Бартолд В.В. Улутбек и его время // Сочинения. – М.: Наука, 1964. Т. III. Ч. 2. - С. 93.

ishlatgan harbiy hiyla qurboniga aylanadi⁴.

Keyingi voqealar shuni ko'rsatadiki, Ulug'bek Mirzoning Mo'g'uliston bilan qo'shni bo'lgan Andijonga – amakivachchasi Ahmad Mirzoga nisbatan munosabati Temuriylar va mo'g'ul xonlari o'rtasidagi keskinlikni vujudga kelishiga turtki bo'ladi.

Ulug'bek Mirzo Farg'ona viloyati noibi Ahmad Mirzoni harbiy kengash masalasida Samarqandga chaqiradi. Biroq, Samarqand noibining chorlovlari javobsiz qoladi. Shundan so'ng Samarqand qo'shini Farg'onaga safarbar etiladi. Ahmad Mirzo Ulug'bek Mirzoga qarshi tura olmasligiga ko'zi yetib, istehkomlarni mustahkamlab, toqqa chekinadi. Ulug'bek Mirzo mazkur shahzodaning suyurg'ali bo'lgan Andijonni qo'lga kiritib, u yerga o'z tomonidan noib belgilab, ortga qaytadi.

Suyurg'alidan ajragan Ahmad Mirzo Mo'g'uliston hukmdoridan harbiy ko'mak olib, Andijon ustiga muvaffaqiyatsiz yurish uyushtiradi⁵. Mag'lubiyatdan so'ng Ahmad Mirzo Mo'g'ulistonga Muhammadxon huzuriga borishga majbur bo'ladi⁶.

O'sha davr tarixchilari Ulug'bek Mirzoning Andijonga harbiy yurishi sabablarini to'la ochib bermaganlar. Fikrimizcha, mazkur harbiy yurishning o'ziga xos sabablari bo'lgan. Chunonchi, Shohrux Mirzo Amir Temur saltanatining bir qismi bo'lgan Ozarbayjon hududini Temuriylar hukmronligiga qaytarish maqsadida Qora Yusufga qarshi harbiy harakat boshlaydi. Biroq, keyingi voqealar rivojini tahlil qilar ekanmiz, bu davrda Shohrux Mirzoning mazkur harbiy safardan ko'zlagan boshqa maqsadi ham bo'lganligini ko'ramiz. Zero, mazkur harbiy yurishdan ko'zlangan maqsad Iskandar Mirzoni siyosat maydonidan surib tashlash edi. Chunki, Iskandar Mirzo keyingi vaqtlarda markaziy hokimiyatga bo'ysunmay, tanga zarbidan Shohruxning nomini olib tashlab, o'z nomini kiritadi va xutbani ham o'z nomiga o'qitadi. Qachonki Shohrux Mirzo Iskandar ustiga harbiy yurish boshlash arafasida bo'lgan bir paytda, Ulug'bek Mirzo ham Farg'onaga - Ahmad Mirzo huzuriga elchi yuborib, harbiy kengash bahonasida uni Samarqandga chaqiradi. Ahmad Mirzo Samarqandga kelmagach, bu daf'a u hech bo'lmaganda o'g'lini yuborishni so'raydi.

Buning sababi shunda ediki, Ahmad Mirzo bilan Iskandar Mirzo aka-uka bo'lib, Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayx Mirzoning o'g'illari edi. Bundan ko'rinib turibdiki, nima bo'lganda ham Shohrux va Ulug'bek Mirzoga g'arbiga - Iskandar ustiga qilinaajak yurishdan avval saltanatning sharqiy qismini - Farg'onani e'tibordan qochirmaslik lozim edi. Shu sababli ham Ulug'bekka Farg'onadagi tinchlikni saqlab turish uchun garov kerak bo'lgan. Zero, Shohruxning "Movarounnahr lashkarlari u tarafdin xabardor bo'lib tursinlar"⁷, deb bergan ko'rsatmasi ham so'zimizning isboti bo'la oladi.

Ulug'bek Mirzo Ahmad Mirzoning Mo'g'ulistonga Muhammadxon huzuriga ketganligi xabarini Isfahon shahrini qamal qilib turgan otasi Shohrux Mirzoga yetkazish uchun Shayhuyi Qoraunosni uning huzuriga yuboradi. Shohrux Mirzo «hozir oliy himmatimiz oldida turgan vazifa Iroqdagi ishlardir, bulardan forig'lik yuz ko'rsatgach, uning tadorigini inshaollohi taolo davlat poytaxti (Hirot)da ko'riladi», degan ko'rsatma beradi⁸.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, Shohrux Mirzo g'arbiga qilingan harbiy safardan qaytgach,

⁴ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlailsa'dayn va majmaibahrayn / Fors-tojik tilidan tarjima, kirish so'zi va izohli lug'atlar A. O'rinboevniki. - T.: Fan, 1969. - B. 165-168.

⁵ Бартолд В.В. Улугбек и его время // Сочинения. – М.: Наука, 1964. Т. III. Ч. 2. - С.100.

⁶ Xavafi Fasix Axmad. Mudjmal-i Fasixi / Per. s pers., predisl. primech. i ukazateli D.Yu. Yusupovoy. - Tashkent: Fan, 1980.-S. 167.

⁷ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlailsa'dayn va majmaibahrayn. [Toshkent 1969]. - B. 195-196.

⁸ O'sha joyda. - B. 201-202.

muvaffaqiyatli yurish yakuni munosabati bilan Hirotga tantanalar uyushtirilib, unda Ulug'bek Mirzo taxt oldida ishonchli noib va uddaburon shahzoda sifatida otasining e'tibor va marhamatidan bahramand holda turgan⁹. Bu esa Ahmad Mirzoga qarshi amalga oshirilgan harbiy yurishlar Shohrux Mirzoning tashabbusi va bevosita rahnamoligida amalga oshirilganligini tasdiqlaydi.

Shunga qaramay Shohrux Mirzo 1415-yilning 26-mayida Ahmad Mirzoga maktub yo'llaydi. Maktubda Ulug'bek Mirzo bilan Ahmad Mirzo orasida bo'lib o'tgan muhoraba fisqu fasodchilarning aybi bilan vujudga kelganligi, Ahmad Mirzoning Mo'g'uliston tomon ketishi noma'qul ishligi, uning Hirotga kelishi lozimligi, zero, Shohrux Mirzo barcha shahzodalarga g'amxo'r ekani bayon etilgandi¹⁰. Ammo 1416-yili Ahmad Mirzo Koshg'ardan Hirotga kelganiga qaramay, uni qaytadan biror viloyatga noib qilib tayinlash u yoqda tursin, hatto Hirotidan tashqariga chiqish man qilinib, nazoratda saqlanadi¹¹.

Andijonda Ahmad Mirzo hukmronligiga chek qo'ygan Ulug'bek Mirzo, endilikda Mo'g'ulistondagi siyosiy vaziyatni diqqat bilan kuzata boshlaydi. Bu paytda mintaqada Muhammadxon vafotidan so'ng uning vorislari o'rtasidagi nizolar kuchayib, Sher Muhammadxon otasining o'rniga Mo'g'uliston taxtida hokim bo'lgan edi¹². 1420-yilga kelib Mo'g'ulistonda Sher Muhammad o'g'lon bilan Vaysxon o'rtasida qonli to'qnashuvlar boshlanadi. Mo'g'ulistondagi mazkur ichki nizolar Ulug'bek Mirzoning e'tiborini tortmay iloji yo'q edi. Saltanat xavfsizligi yuzasidan u 1420-yilning 26-iyunida Mo'g'ulistonga harbiy yurish boshlaydi. Biroq, shu yili 11-iyulda Mo'g'uliston tomonidan Malik Islom degan shaxs mo'g'ullarning itoatda ekanliklari haqidagi xabarni yetkazadi. Shundan so'ng Mo'g'uliston ustiga boshlangan harbiy harakat to'xtatiladi¹³. Biroq, Vaysxon va Sher Muhammad o'g'lon o'rtasidagi nizolar tinchimaydi. Nihoyat, 1420-yilning 27-iyulida Sher Muhammad o'g'lon Samarqandga – Ulug'bek Mirzo huzuriga qochib keladi. Nazarimizda, Sher Muhammad o'g'lonning Ulug'bek Mirzo huzuriga kelishi saltanat xavfsizligi borasidagi tashqi siyosat uchun qulay vaziyat bo'lgan va kelajakda undan foydalanish maqsad qilingan. Ulug'bek Mirzo Mo'g'uliston taxtiga Sher Muhammad o'g'lonni o'tkazish harakatiga tushib, uni Samarqandda ushlab turadi. Nazoratda bo'lgan Sher Muhammad o'g'lon u yerdan qochib ketishga uringan bo'lsa-da, biroq bu foyda bermaydi.

Mo'g'ulistondagi siyosiy vaziyat Koshg'ar hokimi orqali Ulug'bek Mirzoga yetkazib turilar edi¹⁴. 1416-yili Ulug'bek Mirzo huzuriga Mo'g'uliston taxtiga o'tirgan Naqshi Jahondan elchilar keladi. 1417-1418-yilning qishida Ulug'bek Mirzo Chirchiqda qishlaydi. Biroq, hech qanday harbiy harakat amalga oshirilmaydi. Ulug'bekning mazkur safardan ko'zlagan maqsadi haqida tarixchilar hech qanday fikr bildirmagan. V.V. Bartold esa Ulug'bek Mirzo Mo'g'ulistonga harbiy yurish niyatida bo'lgan bo'lsa kerak, degan fikrni bildirgan.¹⁵ Fikrimizcha, Ulug'bekning bu harbiy safardan ko'zlagan maqsadi Mo'g'ulistonga qarshi harbiy harakat emas, u yerdagi siyosiy ahvolni yaqindan kuzatib turish bo'lgan. Bunday deyishimizga sabab, Naqshi Jahonning o'limidan avval Ulug'bek Mirzo tomonidan Samarqandda saqlanayotgan bir guruh mo'g'ullar

⁹ Бартолд В.В. Улугбек и его время. - С.100.

¹⁰ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn. [Toshkent 1969]. - B. 217.

¹¹ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. – Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti. "Xazina". 1995. - B. 96.

¹² Xaydar Mirza Muxammad. Tarix-i Rashidi / Vvedeniye, perevod s pers. A. Urumbayeva, R.P. Djamilovoy, L.M.

Yepifanovoy. Primechaniya i ukazateli R.P. Djamilovoy i L.M. Yepifanovoy. – Tashkent: Fan, 1996. - S.87.

¹³ Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn... [Toshkent 1969]. - B. 279-280.

¹⁴ Бартолд В.В. Улугбек и его время. - С. 102.

¹⁵ O'sha joyda. - С. 102-103.

o'z vataniga qo'yib yuborilgan edi. Shundan xulosa qilish mumkinki, Ulug'bek tomonidan Mo'g'ulistonga qo'yib yuborilgan mo'g'ullar o'z zimmasiga aniq ko'rsatmalar olib, keyinchalik ularni Naqshi Jahon hukumatiga qarshi qo'llagan bo'lishlari ehtimoldan uzoq emas. So'zimizning isbotini Mo'g'ulistonda hokimiyat tepasiga kelgan Vaysxonning tezda Ulug'bek Mirzo huzuriga o'z elchilarini yuborganligida ko'rishimiz mumkin.

1418-yilning mart oyida Naqshi Jahonning vafoti haqida xabar keladi. Shuningdek, Koshg'ardan Naqshi Jahonning vafotidan keyingi Mo'g'ulistondagi siyosiy vaziyat haqida to'liqroq ma'lumot olinadi¹⁹². Mazkur ma'lumotda Vaysxon Naqshi Jahonni jangda o'ldirganligi, endilikda Ulug'bek Mirzo huzuriga o'z hukmronligi tan olinishini so'rab, shoshilinch elchilar yuborganligi bayon qilingandi. 1419-yili hatto Mo'g'uliston xonlari bilan Temuriylar o'rtasida qarindoshlik rishtalari o'rnatiladi: mo'g'ul malikasi Shohrux Mirzoning o'g'li Jo'ki Mirzo nikohiga kiradi. Biroq, Mo'g'ulistondagi tinchlik uzoqqa cho'zilmaydi. 1419-yilning avgust oyida Ulug'bek Mirzoga Mo'g'ulistonda yana siyosiy vaziyat keskinlashib ketganligi haqida ma'lumot beriladi. Oldingi xabarlariga ko'ra, dug'latlardan bo'lgan Amir Xudoydodning qizi Vaysxonga qarshi isyon ko'targandi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Mo'g'ulistondagi siyosiy voqealarda Ulug'bek Mirzoning roli ham katta edi. Chunki u mo'g'ullar tomonidan Farg'onaga amalga oshiriladigan talonchilik yurishlarini oldini olish uchun mazkur hudud hukmdorlarini o'z ta'sir doirasida tutib turishga harakat qilardi. Shu maqsadda Ulug'bek Mirzo, birinchi navbatda, u yerning siyosiy hayotida qadimdan muhim o'rin egallab kelgan dug'lot amirlaridan, xususan, amir Xudoydoddan foydalanishga harakat qildi. Har holda u Amir Xudoydod bilan maxfiy aloqada bo'lib turgan. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, Vaysxonga qarshi isyon ko'tarilgan yilning o'zidayoq amir Xudoydoddan Ulug'bek Mirzo huzuriga elchilar tashrif buyurgan edi. Mazkur elchilikning maqsadi Xudoydodning Vaysxonga qarshi ko'tarilgan isyoni xususida Ulug'bekning munosabatini aniqlash bo'lsa kerak.

1420-yilga kelib, Mo'g'ulistonda yana taxt talashuvi kuchayib ketadi. Bu safar Vaysxonga qarama-qarshi kuch sifatida Sher Muhammad o'g'lon maydonga tushgandi. Xuddi shu yili Mo'g'ulistondagi to's-to'palonlarga qaramay, Temuriylarning Xitoyga yuborgan elchilari Mo'g'uliston hududidan o'tgan bo'lib, elchilarning xavfsizligini Amir Xudoydod ta'minlagan.

Bu paytga kelib mo'g'ullarining ichki nizolaridan foydalangan Ulug'bek Mirzo Mo'g'ulistonga harbiy yurish boshlaydi. U mazkur safarda amir Xudoydodning madadiga ishongan bo'lsa kerak. Lekin bu yurish to'xtatiladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Ulug'bek Mirzo Mo'g'uliston hududi ustidan nazorat o'rnatishda Sher Muhammad o'g'londan foydalanish fikriga kelgan va uni Mo'g'uliston siyosiy maydonida qo'llab-quvvatlay boshlagan. Ulug'bek Mirzoning dastagi bilan Sher Muhammad o'g'lon mintaqada hokimiyatni egallaydi.

Ulug'bek Mirzoning bu davrdagi Mo'g'ulistonga nisbatan qo'llagan siyosati tahlil qilinsa, shu narsa ayon bo'ladi, mazkur shahzoda qo'shni hududdagi o'zaro ichki nizolardan foydalanib, u yerga o'ziga tarafdor mo'g'ul shahzodalardan birini qo'yishga harakat qilgan. Chunki Movarounnahrda qilinadigan bosqinlar ko'p hollarda mo'g'ullar tomonidan amalga oshirilardi. Shuning uchun ham Ulug'bek Mirzo mazkur bosqinlarning oldini olish maqsadida, chegaralar xavfsizligi nuqtai nazaridan Mo'g'ulistonda o'ziga tarafdor chig'atoy xonlaridan biri bo'lishiga harakat qiladi.

Keyingi voqealar shuni ko'rsatadiki, Sher Muhammad Temuriylarga qarshi hech qanday harbiy harakat boshlamagan bo'lsa-da, uning Ulug'bekka bo'ysunishdan bosh tortishining o'zi Samarqand hukmdori uchun yetarli edi. Darvoqe, uning Ulug'bek Mirzoga yozgan maktublarida

bo'ysunish yo'lidan og'ganligi ayon bo'ladi. 1424-yili qandaydir Ali Makrit degan kishining o'g'li Movarounnahrdan qochib, Sher Muhammaddan himoyalashni so'raydi. Ulug'bek Mirzo Ali Makritning o'g'lini Samarqandga yuborishni Sher Muhammaddan talab qiladi. Lekin Sher Muhammad Ulug'bek Mirzoning talabini qondirmaydi¹⁶. V.V. Bartoldning yozishicha, Ali Makritning o'g'lini qaytarish uchun olib borilgan muzokaralar Sher Muhammad bilan emas, balki uning Sadr Islom ismli sarkardasi bilan olib borilgan. Sadr Islom 1424-yilning bahorida Ulug'bek huzuriga qochoqning gunohidan o'tishini so'rab chopar yuborishini, agar uning iltimosi qondirilmasa, shunda ham Ulug'bek Mirzoning talabi qondirilishiga va'da beradi. Biroq, hech qanday chopar kelmagach, Ulug'bek Mirzo Mo'g'ulistonga qarshi harbiy harakat boshlashga tayyorgarlik ko'radi. Shu munosabat bilan Hirotga - otasi huzuriga amir Hamzani yuborib, undan safar uchun ruxsat so'raydi. Shohrux Mirzo avvaliga o'g'lining bu harakatini qo'llab-quvvatlaydi. Lekin, nima uchundir, hoqon harbiy yurish boshlangandan so'ng Ulug'bekka ketma-ket chopar yuborib, mazkur yurishni to'xtatishni talab qiladi. Ammo Ulug'bek Mirzo otasi huzuriga chopar yuborib, endilikda safarni to'xtatib bo'lmasligi, agar yurish to'xtatilsa, yov uni zaif, deb o'ylashi mumkinligini vaj qilib ko'rsatadi.

1424-yilning 8-noyabrida Shohruxiyada qishlashga qaror qilinib, qo'shinni belgilangan mavzega yig'ishga farmon beriladi¹⁷. Yo'l asnosida yov qo'shinidan bir qismi Ashpara atrofida qishlagani haqida xabar keladi. Ulug'bek Mirzo amir Luqmon, Abuk Buzurg, Shoh Vali va Uvays Qavchinni ilg'or qilib qishlovda bo'lgan yov ustiga yuboradi. Ikki kun o'tgach, yuborilgan ilg'or qishlovda bo'lgan mo'g'ul sarkardalari Ibrohim, Arizan va Uljaytu ustiga hujum qilib, ularni mag'lubiyatga uchratadi. Biroq, mazkur mo'g'ul amirlari Jahonshoh bilan birgalikda Temuriylarga qarshi kurashish uchun qaytib keladilar. Bu jangda Ibrohim ikki o'g'li bilan o'ldiriladi, qolgan yov qo'shini chekinadi. Bu voqea 1424-yilning 5-mart kuni Oqsuvda bo'lib o'tgan¹⁸.

Shunday bir paytda, amir Xudoydod Ulug'bek Mirzo huzuriga keladi. Fikrimizcha, bu gal ham amir Xudoydod o'z pozitsiyasini o'zgartirmay, Ulug'bek Mirzo bilan yaxshi munosabatni saqlab qoladi. Bu shuni ko'rsatadiki, amir Xudoydod Sher Muhammadning Ulug'bekka qarshi kurashini qo'llab-quvvatlamagan. 1424-yilning 4-mayida jang bo'lib, u Ulug'bek Mirzoning g'alabasi bilan yakunlanadi¹⁹. Endilikda mo'g'ul beklaridan faqatgina amir Jahonshohni bo'ysundirish qolgan edi. Issiqko'lda turgan Ulug'bek Mirzo Jahonshoh qo'shinini ta'qib qiladi. Amir Arslonxo'janing jonbozligi tufayli Ulug'bek Mirzoning qo'shini jangda g'olib chiqadi.

Sher Muhammadning mag'lubiyati va Ulug'bekning Samarqandga qaytishi Vaysxon uchun ayni muddao edi. Lekin Ulug'bek Mo'g'ulistondan qaytayotganda bu yerni boshqarish uchun kimni qo'ygani yoki Vaysxonga shunday vakolat bergani haqida hech narsa ma'lum emas. Har holda, Mo'g'uliston uchun ko'p yillardan beri ancha kuch sarflab kelayotgan Ulug'bek Mirzo bu yerni taqdir hukmiga havola qilib kelmagan bo'lsa kerak. Ikkinchi tomondan, doimo Mo'g'uliston va Dashti Qipchoqqa bobosi Amir Temur kabi siyosat qo'llovchi Ulug'bek Mirzo, mo'g'ul beklarining asosiy kuchini sindirgan, shuningdek, mo'g'ullar orasida mavqei yuqori bo'lgan amir Xudoydod ham Ulug'bek Mirzo qo'lida edi. Endilikda mo'g'ullarning Temuriylar saltanatiga nisbatan tahdidiga bir qadar chek qo'yilgan edi. Shuning uchun ham Ulug'bek Mirzo Mo'g'ulistonda hokimiyatni Vaysxon egallashiga qarshilik qilmagan bo'lsa kerak.

¹⁶ Бартолд В.В. Улугбек и его время. - С. 333.

¹⁷ O'sha joyda. - С. 332.

¹⁹² Abdurazzoq Samarqandiy. Matla'isa'dayn... [Toshkent 1969]. - B. 334.

¹⁹³ Xavafi Fasix Axmad. Mudjmal-i Fasixi. - S. 196.

Keyinchalik Temuriylarning Vaysxon hukumatiga nisbatan munosabati o'zgaradi. Bu gal Ulug'bek Mirzo Vaysxonga o'z qo'l ostida bo'lgan yana bir chingiziy Sotuqxonni qarshi qo'ya boshlaydi. 1429-yili Issiqko'l qirg'og'ida Vaysxon bilan Sotuqxon o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Mazkur jang Vaysxonning halokati bilan tugaydi²⁰. Lekin Ulug'bekning ko'magi bilan Mo'g'ulistonda muvaffaqiyat qozongan Sotuqxon u yerda uzoq tura olmay, Temuriylarga qarashli Koshg'arga qochishga majbur bo'ladi. Biroq, u dug'lat amirlaridan bo'lgan amir Xudoydodning nabirasi Qorako'l Ahmad Mirzoning Koshg'arga qilgan bosqini asnosida o'ldiriladi. Qorako'l Ahmad Mirzo esa Ulug'bek Mirzoning kishilari tomonidan asirga olinib, Samarqandga keltiriladi va qatl etiladi. Bu davrda Temuriylarga qarashli bo'lgan Koshg'ar uchun Xudoydodning nabirasi Said Ali bilan Temuriylarning Koshg'ardagi noibi o'rtasida kurash qizigan edi. Ulug'bek Mirzoning Koshg'ardagi noibi Muhammad Shoista Said Ali bilan jang qiladi. Biroq, bu jang mo'g'ullarning g'alabasi bilan tugaydi. Mazkur davrdan boshlab, Temuriylarning Koshg'ardagi mavqei tusha boshlaydi. Nihoyat, 1416-yili Koshg'arni Shohrux Mirzo boshqaruviga topshirgan Xoja Sharif endilikda yordam so'rab Samarqandga - Ulug'bek Mirzo huzuriga keladi. Ulug'bek Mirzo Koshg'ar noibini chaqirtirib olib, u yerga Pir Muhammad barlosni noib qilib belgilaydi²¹. Lekin Koshg'ardagi hokimning o'zgarishi ham u yerdagi siyosiy-harbiy holatni izga tushira olmaydi. Mo'g'ullar uchinchi marotaba Koshg'arga harbiy yurish uyushtirganlarida Pir Muhammad hech qanday qarshilik ko'rsata olmaydi. Tabiiyki, mo'g'ullar bosqini natijasida hamma yoq talon-taroj qilinar, yetishtirilgan hosilning hammasi talab ketilardi. Mazkur uchinchi bosqin Koshg'ar uchun kelajakda ocharchilik olib kelishi mumkin bo'lganligidan Pir Muhammadni Said Ali ga topshiradilar. Said Ali Pir Muhammadni qatl ettiradi²². Natijada Koshg'ardagi hokimiyat Temuriylar qo'lidan chiqib, dug'lat amirlari qo'liga o'tadi.

Mo'g'ulistonda esa hokimiyat Vaysxonning ikkinchi o'g'li Eson Bug'axon qo'liga o'tadi. Vaysxonning yana bir o'g'li Yunusxon yosh jihatidan Eson Bug'axondan katta bo'lsa-da, ko'chmanchilarning qadimiy odatiga xilof ravishda ko'pgina mo'g'ul beklari Eson Bug'axon nomzodini xonlik martabasiga loyiq ko'radilar. Xonlik taxtiga Yunusxon nomzodini loyiq ko'rib, uni qo'llab-quvvatlagan Erason Barsin va Mirak turkman Mo'g'ulistonda qololmaydilar. Ular Yunusxonni o'zlari bilan olib, Temuriylardan yordam so'rash ilinjida Samarqandga yo'l oladilar²³. Mo'g'ullarning Samarqandga kelayotganini eshitgan Ulug'bek Mirzo xavfsizlik yuzasidan ularni alohida - alohida maskanlarga joylashtiradi. Ulug'bek Mirzo yosh Yunusxonni otasi Shohrux Mirzo huzuriga yuboradi. Mirza Muhammad Haydarning bergan ma'lumotiga ko'ra, Shohrux Mirzo huzuriga kelgan Yunusxonni boshqa asirlar ichidan ajratib olib, unga shafqat va marhamat bilan otalarcha mehribonchilik qilgan va uni tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy huzuriga ta'lim olish uchun yuborgan.

Xulosa qilib aytganda, Shohrux Mirzo va Ulug'bek Mirzolarning Mo'g'uliston masalasida tutgan siyosatida asosan uch jihatga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) Shohrux va Ulug'bek Mirzolar uchun 1410-1420-yillar mo'g'ullarning Movarounnahr talonchilik bosqinlariga qarshi kurashish davri hisoblanadi. Zero, bu yillar mobaynida mo'g'ullar o'zaro chiqisha olmagan Temuriy shahzodalarga yoki Shohrux Mirzoning siyosatidan norozi bo'lgan amirlarga harbiy ko'mak berish bahonasida Movarounnahr mamlakatiga talonchilik yurishlarini uyushtirganlar.

²⁰ Xavafi Fasix Axmad. Mudjmal-i Fasixi. - S. 97-99.

²¹ O'sha joyda. - C. 102.

²² O'sha joyda. - C. 102.

²³ Xavafi Fasix Axmad. Mudjmal-i Fasixi. - S. 99.

2) 1420-1430-yillar oralig'ida Mo'g'uliston masalasida Shohrux va Ulug'bek Mirzolarning Amir Temur kabi pozitsiyada turishga erishgan davri. Bu davr saltanatning tashqi siyosati uchun qulay yillar bo'lib, Shohrux Mirzo tashabbusi bilan Ulug'bek Mirzo Mo'g'ulistonda o'ziga tarafdor mo'g'ul shahzodalarni hokimiyat tepasiga olib kelishga hamda Koshg'ardagi boshqaruvni bevosita o'z qo'liga olishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa Temuriylarning Xitoy bilan olib borgan diplomatik aloqalariga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazdi.

3) 1430-1440-yillarni o'z ichiga olgan davr, ya'ni Temuriylarning Mo'g'ulistondagi siyosiy ta'sirining susayishi. Bu davrda Koshg'ar boy berildi, Mo'g'ulistonda Eson Bug'axon hokimiyatni mustaqil boshqara boshladi. Natijada mazkur mintaqada siyosiy hayotida Temuriylarning o'rni va roli sezilarli ravishda susayib bordi.

Xullas, Shohrux Mirzo va Ulug'bek Mirzoning harbiy strategik maqsadlarni ko'zlab Mo'g'ulistonga nisbatan qo'llagan siyosatlari natijasida mo'g'ullar Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlariga talonchilik bosqinlarini amalga oshira olmadilar. Bu esa Ulug'bek Mirzo noibligi davrida Movarounnahr mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga hamda Xitoy bilan diplomatik munosabatlarning yuqori darajada amalga oshirilishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.